

O'LMAS UMARBEKOV IJODIDA EGIZAKLAR OBRAZI TAHLILI

Abdullayeva Oynoza Hakimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

o'zbek tili yo'nalishi 25/103-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romanida egizaklar obrazi tahlil qilingan. Egizaklarning ma'nan va ruhan yaqinligi badiiy asar asosida ilmiy talqin etilgan.

Kalit so'zlar: obraz, egizak, ruhiyat tasviri, detal, portret

Аннотация: В статье анализируется образ близнецов в романе Олмаса Умарбекова «Фатима и Зухра». Духовно-нравственная близость близнецов научно интерпретируется на основе произведения искусства.

Ключевые слова: образ, близнец, образ души, деталь, портрет

Abstract: This article analyzes the image of twins in Olmas Umarbekov's novel "Fatima and Zuhra." The twins' spiritual and moral closeness is scientifically interpreted based on the work of art.

Keywords: image, twin, soul image, detail, portrait

Adabiyot insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil va tadqiq qiladi, tasvirlaydi: kitobxon ko'z o'ngida u fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi odam tarzida gavdalanadi. Shu sabab ham adabiyotda qayta yartilgan olam insoniylashgan olam mukammalligi, ezgulikni uyg'otadigan go'zalligi bilan inson ong-shuuriga qattiq ta'sir etadi; uni komil insoniylikka yetaklaydi. Shu fazilati bilan adabiyot — «insonshunoslik»(M.Gorkiy)dir, inson ruhiyatini poklovchi, boyituvchi, «kirchir»lardan xalos etuvchi mo'jizadir. Insonin ulug'lab, e'zozlab, hurmatlab, ardoqlab, sevib kuylovchi va xuddi shunday ruhni boshqalarga ato etuvchi qiyosi yo'q ne'matdir [2. 32.].

Yozuvchi O'lmas Umarbekov tomonidan yozilgan "Fotima va Zuhra" romani hozirgi kunda ham o'z kitobxoniga ega bo'lgan romanlar sirasiga kiradi. Asarda Abdulla muallim xonadoni, uning farzandlari, ayniqsa, Hamidulla ismli o'g'li sabab xonavayron bo'lgan oilaning ayanchli qismati tasvirlanadi. Romanda adibning o'z uslubi, mahorati namoyon bo'ladi. Hamidulla taqdirini yoritishda, adib o'ziga xos uslubdan foydalangan. Egizaklar orqali Hamidullaning noto'g'ri ishlari namoyon bo'ladi.

Adabiyotning asosi, uni dunyoga keltiruvchi omil — hayotdir. U bitmas-tuganmas yaratish qudratiga, yangilanishga, o'sish va rivojlanishga qodir ekan, adabiyot ham unga mos hoida shu qodirlikni o'zida mujassam etadi, u ham kamolot sari taraqqiy qilishdan, hayot baxshida etgan yangiliklarni kashf etishdan to'xtamaydi. Albatta, adabiyot bu vazifani inson ruhiyatining ma'naviyatga va ijtimoiy borliqqa o'zaro ta'sirini o'rganish, tadqiq qilish bilan

amalgam oshiradi. Chunki ma'naviyatsiz ijtimoiy borliqni, ijtimoiy borliqsiz insoniyatni tasavvur qilish mumkin emas[2. 22.].

Yozuvchi egizaklar taqdiri orqali go'yo daraxtning bir ildizidan chiqqan ikki shoxni, ya'ni ikki xil taqdirni ko'rsatmoqchi bo'ladi. Egizaklar bir oila muhitida ulg'aygan bo'lsa ham, hayot deb atalmish sinovlar girdobi ularni turli tomonga qarab uloqtiradi.

Fotima endigina maktabni bitirgan, 17-18- yoshlardagi orzularga limmo-lim qalb bilan yashayotgan qiz. U Zuhraga qaraganda og'ir bosiq, mulohazali qiz bo'lsa-da, taqdir uni o'z joniga qasd qilishga majbur qildi. U singlisini juda yaxshi ko'radigan, hatto uning badnom bo'lishiga sabab bo'lgan o'z akasi bo'lsa-da, undan nafratlanmaydigan qiz. Buni yozuvchi mahorat bilan Fotima xarakterini maktubida namoyon qiladi. Bunga uning o'limi oldidan yozgan xatidagi ushbu so'zlar dalil bo'la oladi: "Zuhra, ularga kuchim yetmadi. Yana to'rtinchisi ham bor. Uning ovozi qulog'imda qoldi. Hovlidan eshitildi uning ovozi. Bu ovoz akamizning ovozi edi. Agar adashgan bo'lsam, kechir. Xudodan ham kechirishini so'rayman. Akam ham kechirsin." [4. 82-s.]

Fotima Zuhraga yozgan xatida garchi mazlum bo'lsa-da, zulmkorlardan qasd olmasligi haqida Zuhraga ta'kidlaydi. Bunga sabab Zuhradan xavotir olgani, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan ushbu so'zlar uning mulohazali qiz ekanini asar boshidanoq o'quvchi ongida shakllantiradi. Asarda Zuhra va Fotimaning ruhi uchrashgan qismi jumboqni ochishga yordam beradi. Uning ko'rinishi o'sha-o'sha faqat ko'zlari olov yonayotgani singari qip-qizil edi: "Xavotir olma, men Fotimaman, – dedi kulib Fotima. – Ko'zlarimdagi qizil cho'g' mening bedor o'tadigan tunlardagi chirog'imdir. Bag'rimga seni bosolmayman. Chunki men ruhman. Meni ko'rishing mumkin, qanday bo'lgan bo'lsam, shunday tasavvur qilishing mumkin". [4. 247 - s]

Zuhra - qat'iyatli, sho'x qiz. Ammo taqdir uning bu jo'shqin fe'lini o'zga yo'lda sarflashga majbur qildi. Asarda Zuhra obrazi yetkachilik qiladi. To'g'ri, asar boshida Zuhra ko'zga tashlanmaydi, voqea-hodisalar Fotima bilan bog'liqdek tasavvur uyg'otadi. Biroq Fotimaning o'limi, xat detali, ruhlar uchrashuvi Zuhra xarakterini ochib berish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Voqealar rivojida Fotimaning o'limi bilan boshlangan mojarolarni go'yo Zuhra oydinlashtirib boradi. Shuning uchun ham O'lmas Umarbekov egizaklar obrazini tanlagan, ularning bir-birini to'ldirishlari, mohiyatan, ruhan bog'liq bo'lishlari hisobga olingan deyish mumkin. Zuhradagi qo'rqmaslik, jasorat singari fazilatlar аёллар учун хос эмас, бироқ қасос ўти, жигар доғи, қалб армони ёш қизнинг характерини ўзгаришига сабаб бўлади. Dastlab u bunchalar bag'ritosh emasdi: "Shunda u Zuhraning ko'zlari qip-qizarib ketganini ko'rdi.

- Nima qildi? Yig'ladingmi? – so'radi Ramz.
- E, so'rama! – qo'lini siltadi Zuhra. – Fermada qiyomat qoyim.
- Qanaqa qiyomat qoyim?
- Aliqul aka bor-ku, otboqar, uloqchi. Taniysanmi?
- Yo'q, – Ramz eslolmadi u odamni.
- O'shani raisning buyrug'i bilan qamchilashdi.

- Qamchilashdi? Urishdi, demoqchimisan?
– Baribir emasmi? Ellik qamchi urishni buyuribdi rais.” [4.72-s]

Bu dialog orqali Zuhraning go‘zal qalb sohibasi, ko‘ngli yumshoq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo kishi boshiga shunday tashvishlar tushar ekanki, u bu qiyinchiliklarda o‘zga bir insonga aylanishi hech gap emas ekan. Zuhra hali o‘smir bo‘la turib shunday ishlarga qo‘l uradiki, bunday jasorat hatto kattalarning qo‘lidan kelishi ham malol edi. Yo‘qsa Fotimani zo‘rlaganlarning uyiga o‘t qo‘yishga hech kimning haddi sig‘masdi, qolaversa, ular kolxozning eng obro‘li kishisi bo‘lmish rais Teshaboy Sultonovning odamlari edi. Zuhra har qanday vaziyatda o‘zini tutib qola oladigan qiz, чунки яқинларидан айрилган, бироқ tushkunlikka tushib, ayriliq sabab, o‘zini xarob etmadi, aksincha qasos olish uchun ham yanada kuchli bo‘lishga harakat qildi.

Egizaklar ruhan va jisman yaqin qondoshlar, ular bir-biriga judayam o‘xshaydi. Egizaklarning tashqi qiyofasi doim ham o‘xshash bo‘lavermaydi. O‘lmas Umarbekov Fotima va Zuhrani xarakteri va tashqi qiyofasini yaratishda ularning bir-biriga o‘xshamas xarakterini tasvirlaydi: “— Fotimasi juda allambalo. Kichkinasi ham yaxshi. Kelishgan. Faqat sho‘x. Bizga kattasi ma‘qul. Shu kattasi — Fotimasini ko‘z ostimizga bosib qo‘yamiz. Sen xabardor bo‘lib tur. Mundoq bo‘sh paytlaringda, haftada bir, uzoqdan bo‘lsa ham uylarini aylan. O‘zi bilan gaplashma. Hurkitib yuborasan. Ayniqsa, kechqurunlari aylan. Tag‘in bitta-yarimta yigit bilan yurib qo‘ymasini.

Odamboy otasi aytgandek, mana, yarim yildan oshdi, Abdulla muallimning uyini haftada bir kuzatib qo‘yadi. Qizdan ko‘ngli tinch. Avvalo qayoqqa borsa, singlisi bilan birga boradi. Sal keyin tug‘ilgan bo‘lsa ham Zuhra singil-da. Lekin aslida ikkalovini farq qilish qiyin. Yaxshilab tikilganda, Fotimaning bir oz to‘laroqligi seziladi. Farqi shu, yurish-turishida farq juda katta. Fotima og‘ir, bosiq, kamgap. Zuhra jibljibon. Otaning aytgani to‘g‘ri, o‘g‘il bolaning o‘zi”. [4.58]

Yoxud Fotimaning maktabni oltin medalga bitirishi, institutga topshirmoqchi bo‘lgani va aksincha Zuhraning o‘qishga hushi ham yo‘qligi ularning xarakter jihatdan farq qilishlarini aks ettiradi. Asarda Fotima taqdirning ayovsiz zarbalari ostida ko‘proq ma‘naviy va jismoniy jabrdiyda sifatida namoyon bo‘lsa, Zuhra bu zarbalardan iroda toplaydi.

Yozuvchi bu farq orqali bir xil muhit va bir xil genetik asosga ega bo‘lgan insonlarning ham fojia qarshisida turlicha yo‘l tutishini ko‘rsatib beradi. Zuhra obrazi orqali adib, adolatsizlikka toqat qilmaslik, oila sha‘nini himoya qilish va hatto eng umidsiz vaziyatda ham kurashish zarurligi g‘oyasini ilgari suradi. Shunday qilib, egizaklar o‘rtasidagi farq shunchaki xarakter xususiyati emas, balki asarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishini ochib beruvchi asosiy badiiy vositadir.

"Fotima va Zuhra" asarida egizaklar obrazi — adolatsizlikka qarshi kurashuvchi matonat ramzidir. Ular orqali muallif mehribonlik va sadoqat baribir yovuzlikdan ustun kelishini, ammo bu g‘alaba ba‘zan juda qimmatga tushishini ta‘kidlaydi. Asar kitobxonni yaqinlarining qadriga yetishga va hayotdagi har qanday zulmga nisbatan murosasiz bo‘lishga chorlaydi.



Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T. Akademnashr. 2018 y.
2. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. T. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004 y.
3. Ulug‘ov A. Adabiyot nazariyasi. T. Mumtoz so‘z. 2018 y.
4. Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. T. O‘qituvchi. 2005 y.

